

IJTIMOIY ADOLAT VA HUQUQIY HIMOYA

Madaminov Mirfayoz Munavvarjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi.

madaminovmirfayoz7@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.14211480>

Annotatsiya. Ushbu maqola "Ijtimoiy adolat va huquqiy himoya" mavzusini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ijtimoiy adolatning asosiy tamoyillari, huquqiy himoya mexanizmlari va ularning o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy adolat va huquqiy himoya sohasidagi muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari, ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun huquqiy mexanizmlarning ahamiyatini va ularni samarali amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy adolat, Huquqiy himoya, Himoya mexanizmlari, Prinsiplar, Nazariya, Huquqiy davlat, Demokratiya, Irqiy tengsizlik, Falsafiy qarashlar.

SOCIAL JUSTICE AND LEGAL PROTECTION

Abstract. This article is devoted to the study of the topic "Social justice and legal protection". The article examines the main principles of social justice, legal protection mechanisms and their interdependence. Also, problems in the field of social justice and legal protection in modern societies are analyzed. The results of the research show the importance of legal mechanisms for ensuring social justice and the need for their effective implementation.

Keywords: Social Justice, Legal Protection, Defense Mechanisms, Principles, Theory, Rule of Law, Democracy, Racial Inequality, Philosophical Views.

СОЦИАЛЬНАЯ СПРАВЕДЛИВОСТЬ И ПРАВОВАЯ ЗАЩИТА

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию темы «Социальная справедливость и правовая защита». В статье рассматриваются основные принципы социальной справедливости, механизмы правовой защиты и их взаимозависимость. Также анализируются проблемы в сфере социальной справедливости и правовой защиты в современных обществах. Результаты исследования показывают важность правовых механизмов обеспечения социальной справедливости и необходимость их эффективной реализации.

Ключевые слова: Социальная справедливость, Правовая защита, Механизмы защиты, Принципы, Теория, Верховенство закона, Демократия, Расовое неравенство, Философские взгляды.

KIRISH

Ijtimoiy adolat va huquqiy himoya zamonaviy jamiyatning asosiy poydevorini tashkil etuvchi muhim tushunchalardir. Ijtimoiy adolat — jamiyatning moddiy va ma'naviy rivojlanish darajasi bilan obyektiv ravishda belgilanadigan, lekin ideal sifatida, odamlar o'rtasidagi munosabatlarning oliy prinsipi sifatida subyektiv baholanadigan kishilar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning hayotiy vaziyatidagi tenglik o'lchovidir. Ijtimoiy adolat, umumiy ravishda, resurslar va imkoniyatlarning teng taqsimlanishi, har bir insonning huquqlarini himoya qilishni anglatadi.

Bu tushuncha jamiyatda tinchlik, barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy adolatning ta'minlanishi, nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda, balki madaniy va ijtimoiy hayotda ham ahamiyatga egadir.

Huquqiy himoya esa ijtimoiy adolatni amalga oshirishda zarur bo'lgan mexanizmlarni taqdim etadi. Huquqiy himoya deganda, har bir insonning o'z huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish imkoniyatini ta'minlovchi normativ-huquqiy mexanizmlar majmuasi tushuniladi.

Huquqiy himoya tizimi vositasida qonunlar, sud tizimi va turli huquq tashkilotlari orqali shaxslar o'z huquqlarini himoya qilish, adolatni qaror toptirish va ijtimoiy muammolarni hal etish kabi imkoniyatga ega bo'ladilar.

Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy adolat va huquqiy himoya tushunchalari, globalizatsiya, iqtisodiy o'zgarishlar va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida yanada dolzarblashib bormoqda.

Ushbu maqolada, ijtimoiy adolat va huquqiy himoyaning zamonaviy jamiyatdagi roli, ularning ahamiyati sifatida belgilangan prinsiplar va amaliyotlariga to'xtalib o'tiladi. Ommaviy tashabbuslar, tashkilotlar va davlatlarning mazkur tushunchalarni amalga oshirishdagi roli ham o'rganiladi. Shuningdek, kelgusida ijtimoiy adolat va huquqiy himoyani ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar va chora-tadbirlarga e'tibor qaratiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari ijtimoiy adolat va huquqiy himoya konseptlarini chuqur tushunishga qaratilgan. Tadqiqot quyidagi asosiy metodlarni o'z ichiga oladi:

A. Nazariy tahlil: Ijtimoiy adolat va huquqiy himoya haqida mavjud nazariyalar va tushunchalarni o'rganish. Bu jarayonda ijtimoiy adolatning tarixi, uning asosiy tamoyillari va huquqiy himoya mexanizmlari tahlil qilinadi. Har bir adabiy manbaalarni tahlil qilish orqali ijtimoiy adolat va huquqiy himoya masalalariga turli nuqtayi nazardan yondashuvlar taqdim etiladi.

B. Empirik tadqiqot: Ijtimoiy adolat va huquqiy himoya masalalarini amaliyotda o'rganish uchun so'rovnoma va intervyu o'tkazish.

Ushbu tadqiqotda turli qatlamlardan kelgan respondentlar bilan olib borilgan soʻrovlar, intervyular natijalari haqida xabar beriladi, bu esa ijtimoiy adolat va huquqiy himoya haqidagi haqiqiy fikrlarni olish imkonini beradi.

C. Qiyosiy tahlil: Turli mamlakatlar yoki hududlarda ijtimoiy adolat va huquqiy himoya tizimlarini solishtirish. Bu jarayon orqali ijtimoiy adolatning amalga oshirilishi va huquqiy himoya mexanizmlarining samaradorligi haqida kengroq tasavvurga ega boʻlish mumkin.

D. Huquqiy tahlil: Mavjud qonunchilik va normativ hujjatlarni tahlil qilish orqali ijtimoiy adolat va huquqiy himoyaning amaldagi holatini baholash. Bu jarayon ijtimoiy adolatni taʼminlashdagi qonunlarning rolini aniqlashga yordam beradi.

Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqotning maqsadlariga erishish, ijtimoiy adolat va huquqiy himoya masalalarini chuqurroq tushunishga imkon beradi hamda natijalarni aniq va ishonchli ravishda taqdim etishga xizmat qiladi.

NATIJALAR

“Ijtimoiy adolat va huquqiy himoya” mavzusi keng qamrovli nazariyalar va konsepsiyalarni oʻz ichiga oladi. “Ijtimoiy adolat va huquqiy himoya” mavzusi keng qamrovli nazariyalar va konsepsiyalarni oʻz ichiga oladi. Ushbu nazariyalar ijtimoiy adolatning mohiyati, uning huquqiy himoyasi bilan bogʻliqligi, shuningdek, ijtimoiy tizimlar va qonunlar orqali amalga oshirilishi haqida fikr yuritadi. Shunday nazariyalardan olingan maʼlumotlardan bir qanchasi bilan tanishib chiqamiz.

Rawls oʻzining “A Theory of Justice” kitobida “ijtimoiy adolat” tushunchasiga taʼrifni “adolatning asosiy prinsiplari” deya belgilaydi. U, shuningdek, qoʻshimcha tarzda “asl holat” (original position) va “farovonlik prinsipini” yonma-yon qilib (difference principle) kiritadi. Yaʼni uning nazariyasiga koʻra, ijtimoiy adolat—har bir insonning huquqlarini taʼminlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan keng qamrovli tushunchadir.

Karl Marx, “Marxizm” nazariyasi asoschisi, oʻzining “Das Kapital” kitobida ijtimoiy adolatni iqtisodiy tengsizliklar va aholining turli tabaqa vakillari orasidagi oʻzaro kurashi orqali tushuntiradi. Marx ijtimoiy adolatni kapitalistik tizimning asossizligini tanqid qilish orqali belgilaydi va ijtimoiy adolat erkinlik, tenglik va haqiqiy egalik orqali amalga oshirilishi kerakligini koʻp bora taʼkidlaydi.

Tarixda “feminist” sifatida oʻzidan iz qoldirgan Iris Marion Young “Justice and the Politics of Difference” kitobida ijtimoiy adolatni gender tengligi nuqtai nazaridan koʻrib chiqadi. Young ijtimoiy adolatni faqat iqtisodiy tenglik bilan emas, balki barcha guruhlarining farqliliklarini tan olish orqali taʼminlash zarurligi haqida soʻz yuritadi.

Ronald Dworkin “Law’s Empire” kitobida qonunlarni ijtimoiy adolat bilan bog‘lab, ularda axloqiy jihatlarining mavjud bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. U qonunlarni faqat formal jihatdan emas, balki ularning ijtimoiy kontekstini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu nazariyalar ijtimoiy adolat va huquqiy himoya tushunchalarining turli jihatlarini yoritadi. Har bir nazariya o‘zining o‘ziga xos yondashuvi bilan ijtimoiy adolatni tushunishga yordam beradi va bu mavzuda chuqurroq fikr yuritishga imkon yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy adolat va huquqiy himoya sohasidagi qonunlari, davlatning fuqarolariga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, o‘z Konstitutsiyasida ushbu masalaga yechim sifatida bu tushunchalarga alohida to‘xtalgan.

Xatto, Konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi ta’kidlangan. 19-moddasida har bir fuqaro teng huquqlarga ega ekanligi, irq, millat, jins, til va boshqa belgilarga ko‘ra kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan. Bu ijtimoiy adolat tamoyillaridan biridir.

Ijtimoiy himoya haqida esa X bobida alohida to‘xtalgan.

Xulosa shuki, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari ijtimoiy adolat va huquqiy himoyani ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu sohada katta yutuqlar mavjud. Biroq, amaliyotda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal etish uchun davlat va jamiyat birgalikda harakat qilishi zarur. Ijtimoiy adolatni ta’minlash va fuqarolar huquqlarini himoya qilish uchun qonunlarni takomillashtirish, huquqiy savodxonlikni oshirish va sud tizimini isloh qilish muhim ahamiyatga ega.

MUHOKAMALAR

Dunyo miqyosida, jumladan O‘zbekistonda ham 2009- yildan buyon 20-fevral- “Butunjahon ijtimoiy adolat kuni” (“World Day of Social Justice”) sifatida nishonlanib kelinadi.

Ushbu xalqaro sana BMT Bosh Assambleyasining 2007- yil 26-noyabrdagi rezolyutsiyasi asosida ta’sis etilgan. Ushbu muhim kunning bosh maqsadi jahon hamjamiyati e’tiborini ijtimoiy adolatni rivojlantirish zarurligiga qaratishdir. Bu bayram, shuningdek, qashshoqlik, ishsizlik, gender tengsizlik, inson huquqlariga hurmatsizlik va ijtimoiy befarqlik kabi dolzarb muammolarni hal etish bo‘yicha sa’y-harakatlarini bajarishga chorlaydi.

“Ijtimoiy adolat va huquqiy himoya” mavzusi borasida shu paytgacha ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda aholining turli soha vakillaridan o‘z fikrini bildirish maqsadida intervyular olingan. Olib borilgan izlanishlar natijasiga ko‘ra huquqshunoslar, ushbu masalaga, ijtimoiy adolat va huquqiy himoya orasida bog‘liqlik bor, deya quyidagi fikrni ilgari suradi: “Qonunlar ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, lekin ularning amalda qo‘llanilishi ko‘pincha ijtimoiy tengsizlikni yanada kuchaytiradi.”

O'qituvchilar va pedagoglar bilan intervyu natijasida, ta'lim—ijtimoiy adolatni o'rnatishning dastlabki bosqichi, o'quvchilarni o'z huquqlari va ma'suliyatlari bilan tanishtirish orqali kelajak avlodni tenglik, adolat prinsplariga xos va mos tarzda tarbiyalash mumkinligi kabi yangi fikrlar olingan. Iqtisodchilar, tajribasiga tayangan holda, iqtisodiy tengsizlik ijtimoiy adolatga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani, huquqiy himoya tizimi esa bu kabi muammolarga to'la yechim bo'la olmayotgani haqida gap yuritgan.

“Ijtimoiy adolat va huquqiy himoya” mavzusi turli mamlakatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har bir mamlakatning tarixiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy sharoitlariga bog'liq ravishda rivojlanadi. Quyida ba'zi mamlakatlarda ijtimoiy adolat va huquqiy himoya tizimlari solishtiriladi.

Ijtimoiy adolat antik davrdan to hozirgacha bosqichma-bosqich taraqqiy topib kelmoqda.

Antik Gretsiya va Rimda ijtimoiy adolat tushunchasi ko'p qirrali va boy tarixga ega bo'lib, u zamonning falsafiy, siyosiy tafakkurida muhim o'rin tutgan ya'ni o'sha davrdayoq adolat ijtimoiy hayotning asosiy prinsiplaridan biri sifatida qaralgan.

AQShda ijtimoiy adolat har xil guruhlar o'rtasida tenglikni ta'minlashga qaratilgan.

Fuqarolarning tarixdan qilib kelayotgan harakatlari ijtimoiy adolatni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Ijtimoiy adolat tamoyillari, ayniqsa, irqiy va jinsiy tenglik masalalarida faol qo'llaniladi. Germaniyada esa, ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi muvozanatga e'tibor beriladi. Ijtimoiy xavfsizlik tizimi odamlarning hayot darajasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy tenglikni ta'minlaydi. Bu tushuncha Janubiy Afrikada ham o'zining dolzarbligi tufayli Apartheid (alohida yashash, irqiy kamsitishning ashaddiy ko'rinishi) dan keyin Janubiy Afrikada ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun ko'plab tashabbuslar amalga oshirildi. Ijtimoiy tenglikni ta'minlash maqsadida hukumat tomonidan turli dasturlar ishlab chiqilgan. AQShda huquqiy himoya tizimi mustahkam bo'lib, sud tizimi fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda samarali faoliyat olib bormoqda. Germaniya hukumatida sud tizimi mustaqil va adolatli hisoblanib, huquqiy himoya tizimi fuqarolarni har qanday nohaqliklardan himoya qiladi, lekin ba'zida iqtisodiy manfaatlar huquqlar bilan to'qnashuvga olib kelayotgan vaziyatlar ham yo'q emas. Janubiy Afrikada konstitutsiya juda ilg'or bo'lib, fuqarolar huquqlari keng qamrovlidir.

Biroq, amalda iqtisodiy tengsizlik va jinoyatchilik kabi muammolar huquqiy himoyaning samaradorligini butkul tushurib kelmoqda.

Xulosa, har bir mamlakatda ijtimoiy adolat va huquqiy himoya tizimlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq.

Ijtimoiy adolatni ta'minlash va huquqiy himoyani kuchaytirish uchun har bir mamlakat o'z tajribalarini o'rganishi va yaxshilanish yo'lida ishlashi zarur. Bu jarayonda xalqaro tajribalarni o'rganish va ijtimoiy masalalarda hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Ijtimoiy adolat va huquqiy himoya tushunchalari har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning rivojlanishi tarixiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy sharoitlarga bog'liqdir. Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar va intervyu natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida ijtimoiy adolatni o'rnatishning dastlabki bosqichi sifatida o'quvchilarni o'z huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirib voyaga yetkazish muhimdir. Bu jarayon yaqin kelajakdagi tenglik va adolat prinsplariga qurilgan jamiyatimizning kafolatidir.

Iqtisodchilar tomonidan ta'kidlanganidek, iqtisodiy tengsizlik ijtimoiy adolatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, shuningdek, huquqiy himoya tizimining mavjud muammolarni to'la yechishi qiyin. Bu holat, ijtimoiy adolat va huquqiy himoya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada kuchaytiradi, chunki adolatli jamiyatni yaratish uchun huquqiy himoya tizimining samaradorligi muhim ahamiyatga ega.

Antik Gretsiya va Rimdanoq adolat ijtimoiy hayotning asosiy prinsiplaridan biri sifatida qaralgan.

Zamonaviy davrda esa, ijtimoiy adolat har xil mamlakatlarda turli shakllarda namoyon bo'lmoqda.

Masalan, AQShda ijtimoiy adolat irqiy va jinsiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan harakatlar orqali rivojlanmoqda. Germaniyada esa iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatga e'tibor beriladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir mamlakatda ijtimoiy adolat va huquqiy himoya tizimlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq. Ijtimoiy adolatni ta'minlash va huquqiy himoyani kuchaytirish uchun har bir mamlakat o'z tajribalarini o'rganishi va yaxshilanish yo'lida ishlashi zarur. Bu jarayonda xalqaro tajribalarni o'rganish va ijtimoiy masalalarda hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Faqatgina bunday yondashuvlar orqali ijtimoiy adolat va huquqiy himoya tizimlarini yanada mustahkamlash, jamiyatda barqarorlik va tinchlikni ta'minlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, bu jarayonlar kelajak avlodlar uchun adolatli va teng imkoniyatlarga ega jamiyat yaratishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Bekjon Salixovich Ismailov “Ijtimoiy-huquqiy davlat konsepsiyasiva uning fuqarolik jamiyati taraqqiyotida tutgan o‘rni” maqolasi, March,2024
2. O‘zbekiston Reapublikasi Konstitutsiyasi May1, 2023
3. John Rawls “A Theory of Justice” 1971, The Belknap Press of Harvard University Press Cambridge, Massachusetts
4. Karl Marx “Das Kapital” 1867, Progress Publishers, Moscow, USSR
5. Jeremy Bentham “An Introduction to Principles of Morals and Legislation” 1789, Clarendon Press in Oxford
6. Iris Marion Young “Justice and the Politics of Difference” 1990, Princeton University Press
7. Michel Foucault “Discipline and Punish 1975, France, Naissance de la Prison by Editions Gallimard